

1. Darsda o'qituvchi so'z yasovchi va grammatik qo'shimchalarni ajratishni so'raydi va har biriga misollar keltiradi. O'quvchilardan bu farqni tushuntirib berishlarini so'raydi.

Savol: Ushbu faoliyat Blum taksonomiyasining qaysi bosqichiga tegishli?

A) Tahlil

B) Tushunish

C) Qo'llash

D) Sintez

2. O'qituvchi ikki o'quvchining yozgan matnlarini sinfda ko'rib chiqadi va o'quvchilardan har ikki matnni grammatik jihatdan baholab, qaysi biri mukammalroq ekanini izohlab berishni so'raydi.

Savol: Bu jarayonda o'quvchilar qanday faoliyatni bajarishmoqda?

A) Faqat grammatik qoidalarini takrorlash

B) O'z fikrini asoslab berish va baholash

C) Matnni yodlash

D) Faqat tahlil qilish

3. 9-sinf o'quvchisi Komil adabiyot darsida A.Qahhorning "O'tmishdan ertak" asarini o'qib chiqqach, o'qituvchining "Bu asarda yozuvchi sovet davrining qanday illatlarini fosh etgan?" degan savoliga quyidagicha javob berdi: "Yozuvchi asarda o'z davrining muammolarini tanqid qilgan: masalan, haddan tashqari byurokratiya, riyo, poraxo'rlik va odamlarning o'z fikrini erkin ifoda eta olmasligi. Bu orqali yozuvchi jamiyatdagi adolatsizliklarga qarshi chiqadi."

Savol: Komilning javobi Blum taksonomiyasi bo'yicha qaysi bosqichga to'g'ri keladi?

A) Bilish

B) Tushunish

C) Qo'llash

D) Tahlil

Izoh: Blum taksonomiyasi bo'yicha tahlil bosqichi – bu o'quvchining ma'lumotlar yoki g'oyalarni tarkibiy qismlarga ajratib, ular o'rtasidagi aloqalarni aniqlay olish qobiliyatidir. Komil bu savolga javob berishda: Asarning asosiy g'oyasini aniqlagan, Muammolarni ajratib ko'rsatgan (byurokratiya, poraxo'rlik), Yozuvchining pozitsiyasini tahlil qilgan (jamiyatdagi illatlarga qarshi chiqish). Bu — aniq tahlil bosqichining ko'rinishidir.

4. 10-sinf o'quvchilari arzimagan gap so'zni deb o'zaro janjallashib qolishdi. Shunda o'quvchilardan biri bunday arzimas gap-so'zni deb janjallashish ularga yarashmasligini aytdi va o'quvchilar tinchlanib nizoni o'zlari hal qilishdi. Quyida nizoni hal qilishning qaysi usuli namoyon bo'lmoqda?

A) Arbitraj

B) Muzokaralar

C) Mediatsiya

D) O'zaro kelishuv

Izoh:

O'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan o'qituvchining muhim vazifasi – bu ularning nizolarni zo'ravonliksiz hal qilishga o'rgatishdir.

Maktabda nizoli vaziyat yuzaga kelganda, uni xotirjam, real, buzmasdan qarash muhimdir. Nizolarni hal qilishning uchta strategiyasi mavjud.

1. **Arbitraj.** Bunday holda, o'qituvchi vaziyatni o'rganish asosida "qaror qabul qiladigan" «hakam» rolini o'z zimmasiga oladi. U o'quvchilarga qanday qilib yarashish kerakligini, ya'ni kim nima qilishi va kelajakda o'zini qanday tutishi kerakligini aytadi. Maktabdagi nizolar bo'lsa, o'qituvchi ko'pincha hakam rolini o'z zimmasiga oladi.
2. **Muzokaralar.** O'qituvchi nizoning sabablarini tushunishga yordam beradi va o'quvchilarga kelishmovchilikni hal qilish yo'llari bo'yicha mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkonini beradi.
3. **Mediatsiya.** O'quvchilar nizoni o'zlari qanday hal qilishni bilmasalar, ular muloqotga xolis yordam beradigan, his-tuyg'ular darajasini pasaytiradigan va yakuniy qarorni qabul qiladigan vositachi yordamida ta'minlanishi mumkin. O'qituvchi vositachi bo'lishi qiyin, chunki vositachi nizoda xolis va befarq bo'lishi kerak. Bu vazifani maktab psixologi yoki nizoga aloqador bo'lmagan boshqa o'qituvchi bajarishi mumkin.

Har bir o'qituvchi maktabda nizolarning oldini olish va yuzaga kelgan taqdirda ularni samarali boshqarish uchun ma'lum bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi nizosiz muloqot tamoyillarini bilish va amalga oshirish kerak: mulohaza yuritmasdan muloqot qiling - boshqalarga «yorliq»ni osib qo'ymaslik va o'zingizga teg qo'yishga yo'l qo'ymang; o'zingizga nisbatan ham, siz tomondan ham muloqotda manipulyatsiyadan qochish; qarama-qarshilikka emas, hamkorlikka yo'naltirilganlik.

Paydo bo'ladigan nizolarning sabablarini ko'rish juda muhimdir. Ba'zida tartib-intizomning muntazam buzilishi va natijada yuzaga keladigan nizolar ortida bolaning uyqu va dam olish rejimiga, jismoniy kasalliklarga va hokazolarga oddiy rioya qilmaslik mavjud.

5. Quyidagilardan qaysi biri nizoni hal qilishda ishontirish usulining asosiy belgisidir?

- A) Tomonlar bir-biriga yon bosib, murosas qiladi.
- B) Bir tomon ikkinchi tomon fikrini to'liq inkor etadi.
- C) Tomonlardan biri dalillar, mantiqiy fikrlar orqali boshqasini o'z pozitsiyasiga ishontiradi.**
- D) Uchinchi tomon aralashadi va qaror qabul qiladi.

Izoh:

✔Suhbat - nizoga kirishuvchi ikki tomon gaplashib nizoni hal qiladi

✔Iltimos - yumshoq tushunarli tonda o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi

✔Ishontirish - nizoli tomonlarning harakatlari xato ekanligi aniq faktlar asosida aytiladi

✔Talab- nizo to'xtatilmasa qattiqroq chora ko'rilishi aytiladi

6. Ona tili fani o'qituvchisining nutqi juda mazmunli, O'qituvchi so'zlaganda so'z va tilning ravonligiga, nutqida aniq faktlar ishtirok etishiga alohida e'tibor beradi. Shu sababli o'qituvchi nutqi orqali o'quvchilarga ta'sir o'tkaza oladi. Quyida o'qituvchi nutqida nutq xususiyatlaridan qaysi biri namoyon bo'lmoqda?

A) Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi

- B) Nutqning mantiqiyligi
- C) Nutqning tozaligi va ifodaliligi
- D) Nutqning to'g'riligi va ravonligi

НУТҚНИНГ ТЎҒРИЛИГИ ВА РАВОНЛИГИ унинг адабий тил нормаларига тўғри келишидир. Бунда иккита жиҳатга эътибор берилади: урғу ва грамматик нормаларга амал қилиниши.

УРҒУ – сўзларнинг тўғри талаффуз этилишини таъминлайди.

Грамматик норма – нутқнинг мазмундорлигини, маъноли эканлигини билдириб, нутқ оқимидаги сўзларнинг ўзгариши, мазмунан бир-бирига бирикишини ифодаловчи хилма-хил қоидалар йиғиндисидир.

Нутқнинг аниқлиги ва таъсирчанлиги – мазмундор нутқнинг тингловчига таъсир этиш омилидир. Ўқитувчи сўз ва тилнинг равлонлиги, нотиклик қобилияти билан аниқ фактлар асосида ўқувчиларга билим беради, уларнинг кўникма ва малакаларини ривожлантиради. Ўқитувчи нутқининг аниқ бўлиши, ўз масъулиятини чуқур ҳис этиш шартидир. Аниқлик, ўрганилаётган мавзунинг ўқитувчи томонидан ифодаланаётган воқеликка, фактларга мувофиқ келишидир. Аниқликнинг чегарасини белгилашда ўқитувчи сўзларни тўғри қўллай олиши, ўзбек тили грамматикасини мукамал билиши, тўғри талаффуз эта олиши талаб қилинади.

7. O'qituvchi o'zi dars berayotgan fan bo'yicha chuqur bilimga ega. Darslari davomida sinonim so'zlardan juda ko'p foydalanadi, har bir mavzu yuzasidan bir ma'lumotni turli xil atamalar bilan izohlab beradi. Bir foydalangan so'zidan ikkinchi marta foydalanmaslikka harakat qiladi. Quyida o'qituvchi nutqida nutq xususiyatlaridan qaysi biri namoyon bo'lmoqda?

- A) Nutqning to'g'riligi va ravonligi
B) Nutqning aniqliги va ta'sirchanligi

C) Nutqning mantiqiyliги

- D) Nutqning tozaligi va ifodaliligi

Izoh:

аниқ бўлиши, ўз масъулиятини чуқур ҳис этиш шартидир. Аниқлик, ўрганилаётган мавзунинг ўқитувчи томонидан ифодаланаётган воқеликка, фактларга мувофиқ келишидир. Аниқликнинг чегарасини белгилашда ўқитувчи сўзларни тўғри қўллай олиши, ўзбек тили грамматикасини мукамал билиши, тўғри талаффуз эта олиши талаб қилинади.

Нутқнинг мантиқийлиги – нутқнинг мантиқий бўлиши энг аввало ўқитувчининг сўз бойлиги, тафаккур юритиш қобилияти, идрок этиш маҳоратига боғлиқ. Ўқитувчи тилни жуда яхши билиши, сўз бойлиги кенг бўлиши мумкин. Аммо ўзи фикр юритаётган мавзуга нисбатан чуқур билимга

MUXTASAR QO`LLANMA ANORA MANKAMOVA GURUHI UCHUN

эга бўлмаса, билимларини ўз тафаккури доирасида таҳлил қила олмаса нотиклик санъати натижа бермайди. Сўзларнинг ўқитувчи ифодалаётган мавзуга мос равишда тўғри ифодаланиши, сўз бирикмаларининг, гапларнинг, матнларнинг бир-бирига тўғри келиши, фикрни изчил баён этиш учун бўйсундирилиши нутқнинг мантиқий бой эканлигидан далолат беради. Ўқувчиларга айтилаётган фикр мантиқан бир-бирига боғланган бўлиши керак. Гаплар ўртасида фикрий боғланиш, изчиллик йўқолиши билан ўқитувчи

8. O'qituvchi nutqining hamisha nazorat qiladi. U nutqida adabiy til normalariga rioya qilishga intiladi. Shu sababli bu o'qituvchining nutqida dialektizm, varvarizm, jargonlar kabi unsurlar uchramaydi. Quyida o'qituvchi nutqida nutq xususiyatlaridan qaysi biri namoyon bo'lmoqda?

A) Nutqning tozaligi va ifodaliligi

- B) Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi
C) Nutqning mantiqiyiligi
D) Nutqning to'g'riligi va ravonligi

эга бўлмаса, билимларини ўз тафаккури доирасида таҳлил қила олмаса нотиклик санъати натижа бермайди. Сўзларнинг ўқитувчи ифодалаётган мавзуга мос равишда тўғри ифодаланиши, сўз бирикмаларининг, гапларнинг, матнларнинг бир-бирига тўғри келиши, фикрни изчил баён этиш учун бўйсундирилиши нутқнинг мантикий бой эканлигидан далолат беради. Ўқувчиларга айтилаётган фикр мантиқан бир-бирига боғланган бўлиши керак. Гаплар ўртасида фикрий боғланиш, изчиллик йўқолиши билан ўқитувчи нутқининг мантикийлигига путур етади.

Ўрганилаётган мавзу матнлари ўртасида мантикий боғланиш бўлиш учун, матнлар бошланма билан ажратилади (масалан, хулоса қилиб айтганда; шу билан бирга; таъкидлаш лозимки ва ҳоказо). Демак, ўқитувчи нутқининг мантикийлиги дейилганда, яхлит бир тизим асосида тузилган, фикр ва мулоҳазалар ривожини изчил бўлган, ҳар бир сўз, ибора аниқ мақсадга мувофиқ ишлатиладиган нутқ тушунилади.

Нутқнинг тозалиги ва ифодалилиги – Ўқитувчи нутқининг тозалиги, аввало унинг адабий тил лисоний нормаларига мувофиқ ифодаланиши билан белгиланади. Ўқитувчиларнинг чиройли ва мазмунан бой нутқи ҳозирги ўзбек адабий тили талабларига мос ҳолда тузилган бўлиши, ғайриадабий тил унсурларидан ҳоли бўлишига қараб баҳоланади. Нутқнинг тоза бўлишига ҳалақит берувчи унсурлар: диалектизм ва варваризмдир. Зеро, ушбу унсурлар бадий адабиётда маълум бир бадий – эстетик вазифани бажарсада, ўқитувчининг дарс жараёнидаги ва тарбиявий фаолиятидаги нутқда ишлатилмаслиги керак. Ўқитувчи доимий равишда идоровий атамаларни, расмий сўз ва ибораларни ноўрин ишлатиши ўз нутқининг нотабиийлигига, ишончсиз чиқишига сабаб бўлади. Натижада ўқувчилар таълим–тарбиясида ўқитувчи томонидан ишонтириш методи орқали қўлланиладиган фикрлар мукамал баён этилмайди.

Нутқнинг тозалиги, унинг турли шева сўзларидан ҳоли бўлиб, фақат абадий тилда ифода этилишидир. Тил воситалари вазиятга қараб ишлатилган, сийқа сўз ва ибораларсиз ҳосил бўлган ўқитувчи нутқи табиий ва самимий бўлади, тингловчи ва ўқувчиларнинг қалбига тез бориб етади.

Жаргон (муайян касб ёки соҳа мутахассисликлари хос бўлмаган сўзлар); варваризм (муайян миллат тилида баён этилаётган нутқда ўзга миллатларга хос сўзларнинг ноўрин қўлланилиши); вульгаризм (ҳақорат қилиш, қўполлик асосида қўлланиладиган сўзлар) ҳамда концеляризм (ўрни бўлмаган вазиятларда расмий сўзлардан фойдаланиш); паразит (ортиқча)

9. O'qituvchi darsda maqsadni aniq qo'ymagan, dars oxirida o'quvchilar nima o'rganganini tushunmay qoldi.

Savol: Bu vaziyatda qanday tahlil turi zarur?

- A) Psixologik tahlil
- B) Didaktik tahlil**
- C) Metodologik tahlil
- D) Ijtimoiy tahlil

Izoh:

Didaktik tahlil — bu ta'lim mazmuni, maqsadi, vazifalari va natijalari bilan bog'liq tahlil. Bu holatda dars maqsadi noaniq bo'lgani uchun didaktik yondashuv o'rganiladi.

10. O'qituvchi darsda yuqori ovozda gapirib, o'quvchilarning e'tiborini jamlay olmadi. Ba'zi o'quvchilar o'zini noqulay his qildi.

Savol: Bu holatda qanday tahlil zarur?

- A) Didaktik tahlil
- B) Psixologik tahlil**
- C) Pedagogik tahlil
- D) Texnologik tahlil

Izoh:

Psixologik tahlil — bu o'quvchilarning hissiy holati, e'tibor, motivatsiya, darsga bo'lgan munosabatini o'rganishdir. Bu holatda o'quvchilarning psixologik noqulayligi asosiy e'tibor markazida.

11. Ona tili o'qituvchisi doskaga bir nechta so'zlarni yozdi va o'quvchilarga shu so'zlardan foydalanib matn tuzish topshirig'ini berdi. Quyida Blum taksonomiyasining qaysi bosqichi namoyon bo'lmoqda?

- A) Bilish
- B) Tushunish
- C) Tahlil qilish
- D) Sintez**